

## O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI HUZURIDAGI FATVO MARKAZINING OILA MASALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI FATVOLAR TAHLILI

Fayzullayeva Muyassar

**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi**

Mirodil Xaydarov

**Ilmiy rahbar Islomshunoslik fanlari  
bo'yicha falsafa doktori dotsent (PhD)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15201025>**

**Annotatsiya:** O'zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi fatvo markazi faoliyatini o'rganish va mustaqillik yillarida O'zbekiston musulmonlari idorasi Fatvo bo'limi faoliyati va rivojlanish tendensiyalari Fatvo markazi tomonidan chiqarilayotgan oila masalasiga doir fatvolar har bir oilalarni tinchligiga kata hissa qo'shmoqda. Oila har bir jamiyat va davlatning ajralmas qismi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Islom dinimizda hossatan muqaddas Qur'oni Karim va hadisi nabaviylarda ham uning muqaddas ekanligi ta'kidlangan. Shu sababdan uning tinch va osoyishta ekanligi avvalo kelajak avlod farzandlarimizning istiqbollari uchun muhim hisoblanadi.

**Kalit so'zlar.** Islom, fatvo, idora, oila, taloq, ajrim, er-xotin, sunnat, Qur'on Karim, farovon, kelajak, farzand, tinch, osoyishta, din, halol, pok, nikoh, xulq, tarbiya, er, xotin, kafaot, tenglik, ilm, Buxoriy, Farobiy, Xorazmiy, iymon, juft, millat, nasab, zurriyot, muqaddas, rahbar, kafaot, tenglik.

O'zbekiston musulmonlari idorasi Fatvo markazi 2022-yilda tashkil etilgan bo'lib, ayni paytda bu erda 20 ga yaqin ulamo xizmat qiladi, Markaz xodimlari mo'min-musulmon xalqimiz diniy ehtiyojini ta'minlash maqsadida bugungi kundagi muhim mavzular yuzasidan fatvolar ishlab chiqish, fuqarolarni bevosita qabul qilish va Koll-markazda telefon orqali kelib tushgan savollarga javob berish, OAVlarida chiqishlar qilish kabi vazifalar bilan shug'ullanishadi. Tashrif davomida talabalar Fatvo markazining zamonaviy Koll-markazi mutaxassislari tomonidan bu erda har kuni o'rtacha 200-250 ta, 1 oyda esa 6-8 ming ta savolga javob berilishi, Ramazon va Qurbon hayiti kunlari bu miqdor keskin oshib ketishi bois 24/7 uzluksiz qo'ng'iroqlarni qabul qilish tartibiga o'tilishi haqida so'zlab berildi<sup>1</sup>.

Bo'lim xodimlari mo'min-musulmonlar hayotiga, toat-ibodatlariga doir dolzarb masalalar yechimini topish, shar'iy fatvolar chiqarish bilan shug'ullanadi. Musulmonlarning ibodatlar va diniy ahkomlar, nikoh, taloq, bay', halol va harom kabi masalalar yuzasidan qilgan murojaatlarini atroflicha o'rganib, tegishli fatvolar beradi. Bo'limning keyingi yillarda chiqargan bir talay fatvolari ibodatlarini shar'iy tartibga solish, turli bid'at va isroflarga chek qo'yish, ixtiloflar va orinsiz bahs-munozaralariga barham berishga qaratildi. Bulardan "Shariy nikohdan o'tish odoblari", "Musibat yetgan xonadonlarga ta'ziya bildirish va ba'zi marosimlar odobi", "Talogga oid ayrim masalalar haqida", "Muborak haj ibodatini ado etish bilan bogliq masalalar to'g'risida" kabi fatvolar musulmonlar hayotida sezilarli voge bo'ldi. Ayniqsa, islomiy aqidamiz sofligini saqlash, turli ixtiloflarga barham berish maqsadida chiqarilgan "Din

<sup>1</sup> Shayx Abdulaziz Mansur "O'zbekiston musulmonlari idorasi" T: Movarounahr nashriyoti, 2014 B - 21

niqobi ostidagi dinbuzarlar”, “Juma namozi va ehtiyoti peshin haqida”, “Tasavvuf pirlariga qo‘l berishdagi ba‘zi noto‘g‘ri aqidalar”, “Tasavvuf haqida” kabi fatvolar musulmonlar birligini, jamiyat osoyishtaligini ta‘minlashda juda foydali bo‘ldi.

Bo‘lim juma mav‘izalari uchun dolzarb mavzularda tezislar tayyorlab, respublika masjidlariga yetkazib beradi. Ushbu tezislar to‘planib, har yili alohida kitob holda chop ettiriladi. Ushbu bo‘limga turli yillarda Salohiddin Muhiddinov, Fozil qori Sobirov, Abdulaziz Mansur, Kimsanboy Abdurahmonov,

Mustafoqul Qorayev, Abdug‘ani Ismoilov, Abdulhamid Tursunov rahbar bo‘lishgan. Hozir bo‘limni Homidjon Ishmatbekov boshqaryapti<sup>2</sup>.

Oila islom dinida muqaddas maskan, bu maskan esa asosiy talim va tarbiya makonidir. Alloh taolo Islomda Qur‘oni Karim orqali bandalarining hayotini nizomga, tartibga solib qo‘ygan. Buning yo‘l-yo‘rig‘ini ko‘rsatish uchun muallim qilib Payg‘ambar alahissalomni yuborgan. Islomda oila ibodat darajasiga ko‘tarilgan. Oiladagi otaning bolalarga o‘zi na‘muna bo‘lib ko‘rsatib berayotgan ibrati, ona esa ularning ta‘lim va tarbiyalari uchun eng muhim hisoblanuvchi shaxsdir, doda-buvilarning o‘g‘itlari esa milliy qadriyatimizga bo‘lgan munosabat, halollik, mehr va oqibat avloddan avlodga o‘tib keladi. Oilaning tinchligi, farovonligi sog‘lom muhit va boshqa barcha milliy qadriyatlarimiz negizida yuzaga kelgan jamiyat va davlatning poydevori mustahkam bo‘ladi. Sababi bunday oilalarda dunyo qarashi keng, manaviy barkamol inson voyaga yetadi. Er xotinning madaniyatli bo‘lishini va farzandlarni yaxshi tarbiya qilishini talab qilishga haqlidir. Ayol kishi ham o‘ziga mos ilmlarni o‘rganish huquqiga ega. Ayol kishi farzandlarini go‘zal tarbiya qilishi uchun o‘zida ham ilm bo‘lishi kerak, shunday oqila ayollarning farzandlari biz o‘ylagandek Imom Buxori, Farobiy, Xorazmiy, Temuriy kabi ulug‘ inson bo‘lishlari mumkin. Qachonki mo‘min-musulmon banda Allohning shariatida ko‘rsatgan odoblari, qoidalari va hadlariga amal qilsa, shunda oila mustahkam bo‘ladi.

2012 yilga “Mustahkam oila yili” deb nom berilishi inson, oila va jamiyat ravnaqi yo‘lida qo‘yilgan navbatdagi qadam bo‘ldi. Oilaning tayanch nuqta ekani konstitutsiyada belgilangan: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”. (14-bob,63-modda).<sup>3</sup>

Dunyoda jamiki mavjudot borki, Alloh taolo ularning barchasini juft qilib yaratgan. Insoniyat olami, hayvonot olami, nabotot olamidanda tortib boshqa barcha jonli va jonsiz narsalarning har biri juft qilib yaratganligi bugungi kunda ilmiy isbotini tokan haqiqatdir. Qur‘oni Karimda ham bunga dalil sifatida oyatlar bor: *وَمِنْ كُلِّ شَيْءٍ خَلَقْنَا زَوْجَيْنِ لَعَلَّكُمْ تَتَذَكَّرُونَ*

“Va Biz har bir narsani juft yaratdik. Shoyad, eslasangizlar” (Zariyat surasi, 49-oyat), oyati bilan barcha narsalarning jufti borligi ta‘kidlangan.<sup>4</sup>

Rum” surasining 21-oyatida shunday bayon qilinadi:

*مِنْ آيَاتِهِ أَنْ خَلَقَ لَكُمْ مِنْ أَنْفُسِكُمْ أَزْوَاجًا لِتَسْكُنُوا إِلَيْهَا وَجَعَلَ بَيْنَكُمْ مَوَدَّةً وَرَحْمَةً إِنَّ فِي ذَلِكَ لَآيَاتٍ لِقَوْمٍ يَعْقِلُونَ*

“Uning oyatlaridan (yana biri) sizlar taskin topishingiz uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratgani va o‘rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir”.

<sup>2</sup> Shayx Abdulaziz Mansur “O‘zbekiston musulmonlari idorasi” T: Movarounahr nashriyoti, 2014 B - 29

<sup>3</sup> Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh. Vohidov; mas‘ul maharrir H. Boltaboyev. — Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013 — B – 7.

<sup>4</sup> Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. –T.: Toshkent islom universiteti, 2004.

Abdurauf Fitrat shunday deydi: “Har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo‘ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”<sup>5</sup>

Ibn Obidin yozadilar: “Dunyoda ham, oxiratda ham inson bilan davom etadigan ikkita robita bor. Birinchisi - inson qalbidagi iymoni. Iymon salomat bo‘lsa, bu dunyoda ham jannatda ham birga bo‘ladi. Ikkinchisi – o‘zining halol-pok oilasi. Bandaning bu dunyodagi halol-pok oilaviy hayoti jannatlarda ham davom etadi. Qolgan barcha narsasi joy-joyida qoladi”.

Imom Shofeydan boshqa barcha ulamolarimiz nikohni ibodat deganlar. Ular Alloh va Payg‘ambar alayhissalom amr qilgan ish ibodat bo‘ladi, nikoh ayni shunday ishlardandir deyishadi.

Nikoh tufayli oila, deb atalgan muhtasham oshyon quriladi. Undan er-xotin, ulardan paydo bo‘lgan o‘g‘il-qizlar birga, bir vatanda yashaydilar. Ular orasidagi qarimdoshlik aloqalari alohida mano va mustahkamlik kasb etadi. Shundoq yo‘l bilan oila nomli kichik bir jamiyat paydo bo‘ladi. Nikoh oila qurishning bundan boshqa foydalari ham juda ko‘p. Shunday ekan Islomda nikoh qattiq targ‘ib qilinadi.

“Kafoat” – tenglik barobarlik degan ma‘noni anglatadi. Islom huquqida esa nikohlanayotgan tomonlarning, to‘g‘rirog‘i erning ayolga teng yoki mos bo‘lishiga aytiladi. Nikohda tenglik quyidagi olti narsada namoyon bo‘ladi: nasl-nasab, din, ozodlik, boyluk, hunar va dindorlik. Bu shartlar nisbiydir. Shuningdek, u asosan erda bo‘lishi lozim bo‘lgan shartlardir. Chunki u yerda ko‘rsatilgan shartlar itimoiy tabaqalanish yoki boshqa mezonlar asosida kelib chiqadigan shartlar bo‘lib, jamiyatning o‘zi ushbu mezonlarni belgilab beradi.

Nikohda nasabdagi kafoat e‘tiborga olinadi. Qurayshliklarning ba‘zilari ba‘zilariga tengdirlar. Arablarning ba‘zilari ba‘zilariga tengdirlar. Ajamlarda Islom e‘tibor qilinadi. Ota-onasi islomda bo‘lgan ota-onasi islomdagiga tengdir. Otasi islomda bo‘lgan ota-onasi unda bo‘lganga emas. O‘zi musulmon bo‘lgan otasi ham musulmonga teng emas. Hurluk ham xuddi Islomga o‘xshaydi. Diyonatligiga qarab ham bo‘ladi. Fosiq solih kishining qiziga teng bo‘la olmaydi. Molu mulkiga qarab ham bo‘ladi. Aslida, tenglik dinga qarab bo‘ladi. Musulmonlarning barchasi bir-birlariga tengdirlar. Folima binti Qays (r.a) Quraysh qabilasidan bo‘lsa ham Usoma ibn Zaydga - asli qul bo‘lgan kishiga tekkanlar. Bu ish Rasululloh (sav) ning maslahatlari bilan bo‘lgan bilan bo‘lgan. Abdurohman ibn Avf (r.a)ning singillari bint ibn Raboh (r.a) bilan turmush qurganlar. Ammo jumhuri ulamolar nikohdagi kafoat - (tenglika dindan boshqa, nikoh ayblaridan salomat bo‘lish, hurriyat, nasab va o‘xshash narsalarni ham qo‘shadilar. Chunki, odatda ushbu omillarga e‘tibor bermaslik ko‘pgina oilalarning buzilishiga sabab bo‘ladi. Lekin taraflar rozi bo‘lsa, nikoh joiz bo‘laveradi.<sup>6</sup>

Musulmonlarda jufti halol tanlashda uning soliha, dindor, yaxshi xulqli bo‘lishi asosiy mezon sanaladi. Abu Hurayra (r.a) dan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (s.a.v.): “Ayol to‘rt narsasi: moli, naslu nasabi, jamoli va dini uchun nikohlanadi. Bas, sen dindorini tanla, omon bo‘lgur”, deganlar (Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasaiy rivoyati).

<sup>5</sup> Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh. Vohidov; mas'ul maharrir H. Boltaboyev. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013 — .B – 51

<sup>6</sup> Burxonuddin Marg‘inoniy. Hidoya, I-jild, Nikoh kitobi: –T.: Adolat, 2002 B – 215

Fatvo - Islomda muftiy yoki ulamolar kengashi tomonidan diniy va ijtimoiy masalalar hukmini bayon qilishdir. Islomning dastlabki davrida Payg'ambarimiz s.a.v sahobalar, ayniqsa, dastlabki to'rt xalifa (choryorlar) ning turli diniy masalalar yuzasidan bergan bayonlari, shuningdek, ularning fiqhga doir chiqargan hukmlari fatvo deb aytilgan. Fatvo halol va xarom, savob va gunoh kabi masalalar bilan bog'lik bo'lgani sababli uning masuliyati va javobgarligi juda kattadir. Islomda fatvo masalasi o'ta masuliyatli va ahamiyatga molik ish hisoblanadi. Zotan fatvo ishiga Alloh taloning o'zi mutasaddi bo'lgan.

O'zbekiston Musulmonlari Idorasi huzuridagi Fatvo berish markazi shu mavzuga oid fatvosi: **ONLAYN TARZDA SHAR'IY NIKOH O'QISH JOIZMI?**

Zamonamizning taniqli ulamolari va nufuzli fatvo uyushmalari ushbu masalani atroflicha o'rganib chiqib, unga shar'iy asoslarga tayanib javob berganlar. Jumladan, Iroq fatvo va da'vat ishlari bo'yicha ulamolar Kengashi hamda Alloma Vahba Zuhayliy, Mustafo Zarqo kabi bir qator ulamolar onlayn tarzda o'qilgan nikoh o'qitish aldov va shariatni oyoq osti qilish xavfi bo'lmagan taqdirda shar'an joiz hisoblanadi, deganlar (Manba: "Majallatu al-fiqhil Islamiy" 2-juz, 867-888 betlar).

Shuningdek, Islom Fiqhi akademiyasi Ulamolar Kengashi, Saudiya arabistoni Podshohligi doimiy Fatvo qo'mitasi, Pokistonning "Dorul ulum" Islom universiteti Ulamolar Kengashi hamda Alloma Muhammad Yusuf Bannuriy, Muhammad Taqiy Usmoniy kabi ko'plab zamonamiz ulamolari onlayn tarzda o'qilgan nikoh ma'lum shar'iy shartlar topilmaganligi sababli joizmas, deya fatvo e'lon qilganlar (Manbalar: "Islom fiqhi akademiyasining birinchi davra Qarorlari to'plami" ning 10-beti, "Fatavoyi dorul ulum" 3-juz, 558-559 betlari, "Fatvoyi Usmoniy" 2-juz, 204-bet).

Shuni ham ta'kidlash kerakki, hanafiy mazhabi ulamolari qadimdan iyyob va qabulning ham bir nechta shartlari mavjudligini, shulardan biri u bitta makonda sodir bo'lishi lozimligini ta'kidlashgan. Alloma Alouddin Kosoniy rahimahulloh ushbu shart haqida jumladan shunday deganlar:

*وأما الذي يرجع إلى مكان العقد فهو اتحاد المجلس إذا كان العاقدان حاضرين وهو أن يكون الإيجاب والقبول في مجلس واحد حتى لو اختلف المجلس لا ينعقد النكاح،*

ya'ni: "Nikoh aqdining o'rniga tegishli bo'lgan shartiga kelsak, u ikki nikohlanuvchi (ya'ni, kilin-kuyov)ning bir majlisda hozir bo'lishidir. Iyyob (ya'ni, taklif) va qabul bir majlisda bo'lishi lozim. Agar majlis boshqa-boshqa bo'lsa nikoh bog'lanmaydi" ("Badoi'us-sanoi" kitobi).

Alloma Haskafiy rahimahulloh ham bu masalada shunday degan:

*ومن شرائط الإيجاب والقبول: اتحاد المجلس لو حاضرين*

ya'ni: "Iyyob va qabulning shartlaridan yana biri ikki nikohlanuvchi bir majlisda ishtirok etib, makonning bir bo'lishidir" ("Durrul muxtor" kitobi).

Alloma Ibn Obidiyn ushbu masalani Bahr kitobidan naql qilib, quyidagicha izohlaydilar:

*قلو اختلف المجلس لم ينعقد، فلو أوجب أحدهما فقام الآخر أو اشتغل بعمل آخر بطل الإيجاب؛ ... ولو عقدا وهما يمشيان أو يسيران على الدابة لا يجوز، وإن كان على سفينة سائرة جاز. أه. أي؛ لأن السفينة في حكم مكان واحد*

ya'ni "Nikohda majlis boshqa-boshqa bo'lsa nikoh aqdi bog'lanmaydi. Agar nikohlanuvchilardan biri iyyob qilsa ikkinchisi o'rnidan turib ketsa yoki boshqa ish bilan mashg'ul bo'lib ketsa iyyob botil bo'ladi... Agar yurib ketayotgan hollarida yoki ulovda ketayotgan hollarida nikoh o'qilsa ham joiz bo'lmaydi. Agar bir kemada ketishayotgan bo'lsa bunda joiz bo'ladi. Chunki kema bir makon hukmida bo'ladi" ("Raddul muhtor" kitobi).

Ushbu fiqhiy manbalardan ma’lum bo’lishicha, shar’iy nikoh aqdi paytida nikohlanuvchilar va guvohlar bir majlisda bo’lishi zarur. Bu bilan telefon, internet yoxud boshqa zamonaviy aloqa vositalari orqali nikoh shar’an joiz bo’lmasligi borasidagi ulamolarning fatvolari dalil jihatdan ustun ekanini ko’rsatadi. Qolaversa, hozirgi kunda nikohdan turli aldov yo’llarida foydalanish holatlari kuzatilmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

### **XULOSA**

Har qanday jamiyatda ham oila ijtimoiy taraqqiyot manbai va axloqiy tarbiya o’chog’i bo’lib kelgan. Shuning uchun ham insoniyat ulug’lari oilani nafaqat jamiyat, balki davlatchilik asoslarining qurilishida ham ilk maktab deb bilganlar. Milliy taraqqiyotga yuz tutgan mustaqil yurtimizda komil insonni tarbiyalash va huquqiy davlatchilik asoslariga poydevor qurisdur. Har bir inson oila muhitida kamolga yetar ekan, oilaning barqarorligi, mustahkamligi va farovonligi jamiyat taraqqiyotining eng asosiy shartlaridandir.

Muqaddas islom ta’limotida oila mustahkamligi borasida ko’rsatmalar kelgan. Qur’oni Karimning bir qancha oyatlarida oila va uning ahamiyati haqida marhamatlar bor. Islom dinida oilga katta e’tibor berilib, uni qanday tashkil qilish, oila a’zolarining huquqlari farzandlar tarbiyasi uning a’zolari o’rtasida chiqadigan kelishmovchiliklarni muolaja qilish, umuman, oilaviy hayotning barcha masalalariga javob toppish mumkin. Shu sababdan oila mustahkamligi yurt tinchligi demakdir. Farzandlarning kamolga yetishida ota-onaning roli katta. Oila sababli insonlarda mehr-muhabbat uyg’onadi, bir-birlariga nisbatan oqibatli bo’lishadi. Islom dinida ham eng muqaddas dargoh oila ekanligi aytiladi. Qur’oni Karimning bir qancha oyatlarida oila haqida aytiladi. Qur’oni Karimda oila masalasini yoritilishi payg’ambarlar nabiyarning misollari orqali ham ko’rishimiz mumkin, shu bilan birga oila to’g’risida uni qanday tadbir qilish va boshqa ko’pgina masalalarda hadislar kelgan, bu ikki muqaddas manbalarda oila butun insoniyatning borligi butunligi tavsiflanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:**

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –T.: Ma’naviyat, 2000.
2. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. –T.: Toshkent islom universiteti, 2004.
3. Burxonuddin Marg’inoniy. Hidoya, I-jild, Nikoh kitobi: –T.: Adolat, 2002.
4. Islom odoblari ensiklopediyasi. –T.: Hilol-Nashr, 2019.
5. <https://hidoyat.uz/49437>
6. Oybek Ne’matulloh, Ilhomjon Murod Ali. “Islomda oila” muammo va yechimlar. –T.: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2019.
7. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo’nalishlar va kitoblar. – Toshkent: Hilol-nashr, 2022.
8. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usulul-fiqh. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2011.
9. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Baxtiyor oila” – Toshkent: Hilol-nashr, 2022.
10. Xaydarov M. Zamonaviy fiqhiy masalalar/ o’quv qo’lanma. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2024.
11. <https://ifa-india.org/>.
12. <https://islamqa.info/ar/answers/105531>.
13. <https://www.springermedizin.de/analytical-review-of-contemporary-fatwas-in-resolving-biomedical/15711720>
14. <https://muslim.uz/uz/e/p>